

**TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN PLASTIK
KARTOCHKALAR BILAN OPERATSIYALARNI AMALGA
OSHIRISH ASOSLARI**

Xushboqov U.
BFA-Tinglovchisi

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot ishida tijorat banklarida kartali to'lov tizimining samaradorligini oshirish mexanizmlarini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishning innovatsion yechimlarini ishlab chiqishdan iborat.

Ishda birlamchi ma'lumotlar sifatida "Asaka bank" AJ va boshqa tijorat banklarining statistik hisobotlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Moliya vazirligi hamda Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlaridan foydalanilgan. Ikkilamchi manbalar sifatida xalqaro moliyaviy institutlar (Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, BIS, OECD va boshqalar) hisobotlari, ilmiy maqolalar hamda xorijiy tajribalar tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi qiyosiy, statistik, iqtisodiy va SWOT-tahlil usullariga asoslanib, kartali to'lov tizimlarining rentabelligi, texnologik innovatsiyalar darajasi, mijozlar faolligi va xizmat sifati o'rtasidagi bog'liqlik aniqlangan. Natijada, banklarda kartali to'lov tizimlarining samaradorligini baholash uchun diagnostik ko'rsatkichlar tizimi hamda ekonometrik model ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kartali to'lov tizimi, raqamli transformatsiya, naqd pulsiz iqtisodiyot, bank infratuzilmasi, HUMO, UzCard, elektron to'lov, iqtisodiy samaradorlik.

Kirish. O'zbekiston sharoitida ham tijorat banklarining aktiv

operatsiyalarini rivojlantirish masalasi muhim iqtisodiy yo'nalishlardan biridir. So'nggi yillarda davlat ulushiga ega banklarni transformatsiya qilish, xususiy kapital ulushini oshirish va bank sektorining raqamli infratuzilmasini kengaytirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" farmoni hamda 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli "Bank tizimini isloh qilish strategiyasi" farmoni bank sektorini modernizatsiya qilish, moliyaviy xizmatlarni ommalashtirish va bank aktivlarining sifatini oshirishni strategik ustuvor yo'nalish sifatida belgilab bergan (Lex.uz, 2022).

Ushbu islohotlar doirasida 2025-yilga borib xususiy banklarning jami bank aktivlaridagi ulushini 60 foizgacha oshirish, davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlash, kredit portfellarini diversifikatsiyalash, yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar hajmini kengaytirish hamda xorijiy valyutadagi aktivlar nisbatini muvofiqlashtirish vazifalari belgilangan (CBU, 2024). Shu orqali bank aktivlarining likvidligini oshirish, risklarni kamaytirish va tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlash rejalashtirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2020–2025 yillarga mo'ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasida ham ushbu masalaga alohida e'tibor qaratilgan. Unda moliya bozorida sog'lom raqobat muhitini yaratish, kreditlash jarayonlarini faqat bozor mexanizmlari asosida amalga oshirish, banklarning davlat resurslariga qaramligini kamaytirish, xizmat ko'rsatish jarayonlarini modernizatsiya qilish, avtomatlashtirish darajasini oshirish va natijada bank tizimining samaradorligini

ta'minlash kabi ustuvor yo'nalishlar belgilab berilgan.

Shu bilan birga, tijorat banklarining mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonida yangi innovatsion yechimlarni joriy etishlari, raqamli xizmatlar ulushini oshirishlari hamda masofaviy xizmatlardan olinadigan daromadlarni ko'paytirishlari zarur. Ammo mavjud holat tahlili shuni ko'rsatadiki, mamlakatimiz tijorat banklarida innovatsion faoliyat, ayniqsa, masofaviy bank xizmatlaridan olinayotgan daromadlar hali ham past darajada qolmoqda.

Adabiyotlar sharhi. Taniqli hind olimi Alrasheedi, M. A. (2023). *Enhancing Fraud Detection in Credit Card Transactions: A Comparative Study of Machine Learning Models* deb nomlangan ilmiy maqolada muallif M.A. Alrasheedi zamonaviy to'lov tizimlarida, xususan kredit kartalari tranzaksiyalarida firibgarlikni aniqlash (fraud detection) jarayonini takomillashtirish masalasini chuqur o'rganadi. Tadqiqotning maqsadi — mashina o'rganish (machine learning) asosidagi algoritmlarning samaradorligini taqqoslab, eng yuqori aniqlik va xavfsizlik darajasiga ega modellarni aniqlashdir.

Muallif tadqiqotda Random Forest, Gradient Boosting, Support Vector Machine (SVM) hamda Neural Network kabi mashina o'rganish modellarini real tranzaksiya ma'lumotlari asosida tahlil qilgan. Natijalarga ko'ra, ansambl (ensemble) usullari, ayniqsa Gradient Boosting va Random Forest modellarining aniqlik darajasi yuqori bo'lib, ular firibgarlik operatsiyalarini aniqlashda eng samarali algoritmlar sifatida tavsiya etilgan.

Alrasheedi o'z tadqiqotida firibgarlikni erta aniqlash tizimlari to'lov tizimlarining barqarorligi va ishonchliligini oshirishda muhim omil ekanini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, u real vaqt (real-time) monitoring tizimlarining to'lov

xavfsizligini mustahkamlash, tranzaksiya kechikishlarini kamaytirish va mijoz ishonchini oshirishdagi rolini ilmiy asosda ochib beradi.

Muallifning fikricha, kredit karta tizimlarida xavfsizlikni oshirish nafaqat texnik jihatdan, balki iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Chunki firibgarlik operatsiyalari banklar va to'lov tizimlari uchun katta moliyaviy yo'qotishlarga sabab bo'ladi. Shu bois, sun'iy intellekt (AI) va mashina o'rganish texnologiyalarining integratsiyasi orqali to'lov tizimlarida risklarni boshqarish, aniqlikni oshirish va tizim samaradorligini ta'minlash bugungi kunning dolzarb yo'nalishiga aylangan.

Maqolada shuningdek, to'lov tizimlarida qo'llanilayotgan anomalialarni aniqlash algoritmlari, xususiyatlarni tanlash (feature selection) va klassifikatsiya tahlili usullarining amaliy natijalari ham tahlil etilgan. Ular orqali to'lov tizimlarining kiberxavfsizlik darajasini oshirish va avtomatlashtirilgan audit mexanizmlarini joriy etishning ilmiy asoslari yoritilgan.

Muallif yakuniy xulosasida to'lov tizimlarida firibgarlikni aniqlash algoritmlarini takomillashtirish orqali nafaqat xavfsizlik, balki tranzaksiya tezligi, ishonchlilik va samaradorlik ko'rsatkichlarini ham sezilarli darajada oshirish mumkinligini asoslaydi.

Otamurodov, S., & Eshqulova, N. (2023). *O'zbekiston to'lov tizimining raqamli transformatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari*. Ilmiy tatqiqot ishida O'zbekiston Respublikasi to'lov tizimining raqamli transformatsiyasi jarayonlari, ularning bosqichlari, muammolari va istiqbollari chuqur ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqotda raqamli moliya infratuzilmasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida talqin qilinadi.

Mualliflar ta'kidlaydilar, mamlakatimizda to'lov tizimini raqamlashtirish "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi hamda Prezident Farmoni PF–6079 ("Bank tizimini raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida") asosida tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar milliy to'lov infratuzilmasini modernizatsiya qilish, naqd pulsiz iqtisodiyot ulushini oshirish hamda bank xizmatlarining ommabopligini kengaytirishga qaratilgan.

Tadqiqotda mualliflar O'zbekiston to'lov tizimining raqamli transformatsiyasi jarayonini quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha tahlil qilganlar:

- Bank kartalari va to'lov vositalarining kengayishi: HUMO, Uzcard, Visa, MasterCard, UnionPay tizimlarining integratsiyasi.
- Mobil to'lov ilovalari (fintex yechimlari): Click, Payme, Apelsin, Oson, Alif Mobi kabi raqamli xizmatlarning rivojlanishi.
- Onlayn-savdo ekotizimining kengayishi: elektron tijoratda to'lov tizimlarining roli va xavfsizlik mexanizmlari.
- Kiberxavfsizlik va ma'lumotlarni himoya qilish masalalari: tranzaksiya xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlar himoyasi, autentifikatsiya tizimlari.

Mualliflarning fikricha, to'lov tizimining raqamli transformatsiyasi iqtisodiyotda moliya oqimlarining shaffofligini oshirish, soliq tushumlarini ko'paytirish, korrupsion risklarni kamaytirish kabi ijobiy ta'sirlarni keltirib chiqarmoqda. Shu bilan birga, ular ayrim muammolarga ham e'tibor qaratganlar — xususan, tizimlarning texnik nosozligi, internet infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmagani, raqamli savodxonlikning pastligi kabi omillar transformatsiya jarayonini sekinlashtirishi mumkinligini qayd etganlar.

Maqolada iqtisodiy samaradorlikni tahlil qilish uchun mualliflar tomonidan

statistik jadval va grafiklar keltirilgan. Ularda 2020–2023-yillar davomida:

- bank kartalari soni 1,8 baravarga oshgani,
- elektron to'lov hajmi 3,5 baravarga ko'paygani,
- POS-terminallar soni 15 foizga oshgani,
- naqd pulsiz to'lovlar ulushi 67 foizga yetgani haqida ma'lumotlar aks

ettirilgan.

Tadqiqot yakunida S. Otamurodov va N. Eshqulova quyidagi ilmiy xulosalarga kelganlar:

1. To'lov tizimlarining raqamli transformatsiyasi bank tizimining innovatsion rivojlanish bosqichi sifatida qaralishi kerak.
2. Raqamli moliya infratuzilmasining samaradorligini oshirish uchun sun'iy intellekt, blokcheyn, bulutli texnologiyalar asosida integratsiyalashgan platformalarni joriy etish zarur.
3. Raqamli transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun normativ-huquqiy baza, kadrlar salohiyati va texnologik infratuzilma o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash talab etiladi.

Zabovorskaya, A.E., Trofimova, E.A., & Zoidov, Z.K. (2021). *Specifika organizatsii i sovremennye trendy v beznalichnyh raschetah: rossiyskaya praktika*. Deb nomlanga maqolada mualliflar Rossiya Federatsiyasi to'lov tizimining hozirgi holati, uning tashkil etilish mexanizmlari va rivojlanish tendensiyalarini chuqur tahlil qilganlar. Ularning tadqiqoti nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo'lib, beznaqd to'lov tizimlarining samaradorligini oshirish uchun innovatsion texnologiyalar va integratsion infratuzilmaning o'zini markaziy nuqtada tahlil etilgan.

Mualliflarning fikricha, to'lov tizimlarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun eng muhim omillardan biri bu — protsessing markazlari va infratuzilmaning integratsiyalashuvidir. Bunday integratsiya turli banklar, to'lov operatorlari va moliyaviy institutlar o'rtasida interoperabellikni (o'zaro moslikni) ta'minlaydi. Natijada, to'lov jarayonlari tezlashadi, tranzaksiya xarajatlari kamayadi va tizimning umumiy samaradorligi hamda ishonchliligi sezilarli darajada ortadi.

Zabovorskaya, Trofimova va Zoidov shuningdek, raqamli to'lov yechimlarining innovatsion shakllari to'lov tizimlarini modernizatsiya qilishda strategik ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, mobil to'lov tizimlari, QR-kodli to'lovlar, NFC (Near Field Communication) texnologiyalari, biometrik autentifikatsiya hamda sun'iy intellekt asosida tranzaksiya monitoringi kabi texnologiyalar beznaqd hisob-kitob tizimlarining samaradorligini oshiruvchi eng muhim vositalardir.

Mualliflar tadqiqotlarida Rossiyada 2015–2020-yillar oralig'ida naqd pulsiz to'lovlar hajmi 3,8 baravarga o'sib, aholining moliyaviy raqamli faolligi oshganini ta'kidlaydilar. Shuningdek, mobil ilovalar orqali amalga oshirilgan to'lovlar ulushi 2020-yilda jami tranzaksiyalarning 57 foizini tashkil etgan. Bu esa to'lov tizimlarining mijozga yo'naltirilgan (client-oriented) raqamli transformatsiyasi natijasi sifatida baholanadi.

Zabovorskaya va hamkorlarining tahliliga ko'ra, to'lov tizimlarida innovatsion yechimlar joriy etilishi uchta asosiy natijani beradi:

1. *Operation samaradorlik* — tranzaksiya tezligi, aniqligi va uzluksizligi ortadi.

2. *Moliya oqimlarining shaffofligi* — barcha to'lov operatsiyalari raqamli kuzatuv ostida bo'lib, bu soliq va moliya nazoratini osonlashtiradi.

3. *Xavfsizlik darajasining oshishi* — texnologik yechimlar orqali firibgarlik va kiberxavf holatlari kamayadi.

Shu bilan birga, mualliflar ayrim cheklovlarni ham qayd etganlar. Jumladan, texnologik transformatsiya jarayonida axborot xavfsizligi, ma'lumotlar maxfiyligi va regulyatorlik muvofiqlik masalalari yetarli darajada e'tibor talab etadi. Ular ta'kidlaydilar, agar to'lov tizimi ishonchli xavfsizlik mexanizmlariga ega bo'lmasa, u holda innovatsion yechimlar samaradorlikni emas, balki risklar darajasini oshirishi mumkin.

Tahlil va natijalar. Tijorat banklari tomonidan plastik kartochkalar orqali amalga oshiriladigan barcha operatsiyalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari, Prezident farmonlari va qarorlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etiladi va amalga oshiriladi. Ushbu me'yoriy hujjatlar to'lov tizimining barqaror ishlashini, mijozlar manfaatlarini himoya qilishni hamda naqd pulsiz hisob-kitoblarni rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan.

Mamlakatimizda plastik kartochkalar orqali hisob-kitoblar jarayoni O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2021-yil 3-apreldagi 3294-sonli "O'zbekiston Respublikasi hududida bank kartalarining chiqarilishi va muomalada bo'lishi qoidalari to'g'risida"gi Nizomi asosida amalga oshiriladi. Mazkur nizom tijorat banklariga naqd pulsiz to'lovlarni amalga oshirish tartibini, ularning huquq va majburiyatlarini, to'lov tizimi ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini hamda

hisob-kitoblarni yuritish mexanizmini belgilab beradi.

Nizomga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida bank kartalari orqali amalga oshiriladigan operatsiyalarni huquqiy tartibga solish mamlakat moliya tizimining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu soha nafaqat bank faoliyati, balki to'lov tizimi infratuzilmasining barqarorligi, mijozlar manfaatlarining himoyasi va moliyaviy xavfsizlik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bank kartalari bo'yicha munosabatlar Markaziy bank tomonidan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risidagi Nizom", amaldagi qonunchilik hujjatlari, to'lov tizimlarining ichki qoidalari hamda to'lov tizimi ishtirokchilari o'rtasida tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Mazkur normativ-huquqiy asoslar bank kartalarining emissiyasi, ularga xizmat ko'rsatish, to'lov va hisob-kitob jarayonlarini tartibga solib, har bir ishtirokchining huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi rezident banklari milliy, xalqaro va xorijiy to'lov tizimlarining to'laqonli ishtirokchisi bo'lish huquqiga ega. Bunda ular VISA, MasterCard, UnionPay, HUMO, UZCARD kabi to'lov tizimlarining standartlari va texnik talablari asosida faoliyat yuritadilar. Agar milliy qonunchilikda alohida qoidalar belgilanmagan bo'lsa, banklar tegishli to'lov tizimi tomonidan belgilangan xalqaro standartlardan foydalanish majburiyatiga ega bo'ladi.

To'lov tizimi ishtirokchilari, ya'ni banklar, to'lov tashkilotlari va xizmat ko'rsatuvchi subyektlar tomonidan bank kartalari emissiyasi, xizmat ko'rsatish va hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirishda o'rnatilgan tartib va qoidalarga qat'iy rioya etilishi talab etiladi. Ular o'z faoliyatida mijozlarning mablag'larini himoya qilish, to'lovlar xavfsizligini ta'minlash va bank kartalaridan noqonuniy

foydalanishning oldini olish choralarini ko'rishlari shart.

Shuningdek, to'lov tizimi ishtirokchilari o'z ixtiyoridagi tijorat va bank siri hisoblangan ma'lumotlarni, jumladan, to'lov tizimi infratuzilmasi, texnologik vositalar, dasturiy ta'minot, operatsiyalar jarayoni hamda bank kartasi egalari to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor etmaslik majburiyatiga ega. Bu talab to'lov tizimida axborot xavfsizligini ta'minlash va mijozlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Huquqiy jihatdan to'lov tizimi ishtirokchilari o'zaro munosabatlarini shartnomaviy asosda tartibga soladilar. Bunda Markaziy bank tomonidan tasdiqlangan nizom va qonunchilik hujjatlari umumiy metodik asos sifatida xizmat qiladi. Bu tizim banklar o'rtasida mas'uliyatni aniq taqsimlash, operatsion xavflarni kamaytirish hamda to'lov jarayonining uzluksizligini ta'minlashga imkon yaratadi.

Ilmiy nuqtayi nazardan, bunday tartibga solish mexanizmi bank tizimida moliyaviy barqarorlik, kiberxavfsizlik va to'lov intizomini mustahkamlovchi institutsional asos sifatida baholanishi mumkin. Zero, to'lov tizimining ishonchli ishlashi nafaqat banklar faoliyatining samaradorligini oshiradi, balki milliy iqtisodiyotda raqamli to'lov madaniyatini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi.

1-jadval

Bank kartalarining turlari va ularning iqtisodiy mazmuni

Tasnif /r	B ank karta turi	Ta'rif i	Asosiy foydalanuvchi lar	Iqtis odiy ahamiyati
--------------	------------------------	-------------	--------------------------------	----------------------------

	KART A HISOVARA G'I SUBYEKTI BO'YICHA	S haxsiy bank kartasi	Jismo niy shaxs nomiga ochilgan karta hisobvarag'ig a biriktiriladi. Egasi o'z mablag'larida n to'lov, o'tkazma va naqd olish operatsiyalari da foydalanadi.	Jismon iy shaxslar (mijozlar, iste'molchilar)	Aholi ning to'lov madaniyatini oshiradi, naqd pul muomalasini kamaytiradi.
		K orporativ bank kartasi	Yurid ik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor nomiga ochilgan karta. Tashkilot vakolatli	Korxo na, tashkilot, yakka tartibdagi tadbirkorlar	Korx ona moliyaviy intizomini kuchaytiradi, ichki nazoratni yaxshilaydi.

			xodimlari xizmat safarlari va xo'jalik xarajatlari uchun foydalanadi.		
	AMAL QILISH TARTIBI BO'YICHA	D ebet kartasi	Karta egasiga o'z hisobvarag'id agi mavjud mablag'lar doirasida to'lov operatsiyalari ni amalga oshirish imkonini beradi.	Jismon iy va yuridik shaxslar	Moli yaviy intizomni ta'minlaydi, kredit xavfini kamaytiradi.
		K redit kartasi	Karta egasiga bank tomonidan ajratilgan kredit liniyasi	Kredit ga muhtoj mijozlar	Qisq a muddatli likvidlikni ta'minlaydi, banklar

			asosida mablag'lardan foydalanish imkonini beradi.		uchun foizli daromad manbai bo'ladi.
	TO'LO V TIZIMIDAGI TEGISHLILI GI BO'YICHA	K obeydjing kartasi (Co- badging)	Ikki yoki undan ortiq to'lov tizimida ishlaydigan, bir nechta tizim logotipini o'zida mujassam etgan karta turi.	Xalqar o to'lov tizimlari ishtirokchilari	Xalq aro integratsiyani kuchaytiradi, tranzaksiya erkinligini oshiradi.
		K obrend kartasi (Co- brand)	Bank va boshqa tashkilot (masalan, aviakompaniy a, savdo tarmog'i)	Hamko r tashkilot mijozlari	Bren dlararo hamkorlikni rivojlantiradi, mijozlarni rag'batlantira di.

			hamkorligida chiqariladigan , bonus yoki chegirma tizimiga ega karta.		
--	--	--	--	--	--

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2021-yil 3-apreldagi 3294-sonli “O‘zbekiston Respublikasi hududida bank kartalarining chiqarilishi va muomalada bo‘lishi qoidalarini to‘g‘risida”gi Nizomi asosida muallif ishlanmasi.

Bank kartalari muomalasini tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy tizimda emitent va karta egasining (saqllovchisining) o‘zaro munosabatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur munosabatlar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartiblar hamda 2017-yil 23-mayda tasdiqlangan “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat qoidalarini” (ro‘yxat raqami 2886) asosida amalga oshiriladi.

Emitent — bu tijorat banki bo‘lib, u bank kartalarini chiqarish, ularning aylanishini tashkil etish va ular orqali amalga oshirilgan operatsiyalarni hisobga olish bo‘yicha javobgar subyektdir. Emitent jismoniy va yuridik shaxslarga bank kartalarini shartnoma yoki ofertani qabul qilish asosida taqdim etish huquqiga ega. Bu jarayonda u mijozni qonunchilikda belgilangan tartibda identifikatsiya qiladi hamda kartani faqat shaffof moliyaviy faoliyat yurituvchi shaxslarga beradi.

Emitent shuningdek, karta orqali amalga oshirilgan operatsiyalar (ayniqsa, debet aylanmalar) uchun xizmat haqi undirish hamda karta hisobvarag'iga mablag' kiritish uchun komissiya belgilash vakolatiga ega.



1-rasm. Tijorat banklarning emission kartomati

Manba: Internet malumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Biroq emitent ushbu huquqlar bilan birga bir qator majburiyatlarni ham bajarishi shart. Jumladan, u:

- karta olish uchun topshirilgan arizalarni qonunchilikda belgilangan muddatda ko'rib chiqishi;
- karta yo'qotilgani yoki undan noqonuniy foydalanilgani haqida mijoz tomonidan yuborilgan xabarlarni sutkaning istalgan vaqtida qabul qilish imkonini yaratishi;
- karta xizmatiga oid tariflardagi o'zgarishlar yoki kartaning amal qilish muddati tugashidan oldin to'xtatilganligi haqida saqllovchini xabardor etishi;
- karta hisobvarag'i yopilgandan so'ng, undagi mablag'larni keyingi bank operatsiya kunidan kechiktirmay mijozga qaytarishi;

– barcha karta operatsiyalarini o‘z vaqtida va to‘g‘ri aks ettirishi lozim.

Emitentning javobgarligi, avvalo, mijozning moliyaviy xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan. Bank kartasi yo‘qolganligi yoki undan ruxsatsiz foydalanilganligi to‘g‘risidagi ariza qabul qilingandan so‘ng, emitent shu kartadan keyingi har qanday noqonuniy operatsiyalar uchun javobgar hisoblanadi. Xuddi shuningdek, qalbaki (soxta) kartalar orqali bajarilgan barcha operatsiyalar ham emitent zimmasiga yuklatiladi.

Shunga qaramay, emitent ayrim hollarda javobgarlikdan ozod etiladi. Jumladan, agar:

- karta saqlovchisi shartnoma shartlarini buzgan bo‘lsa;
- karta egasi tomonidan noqonuniy harakatlar sodir etilgan bo‘lsa;
- karta yo‘qolgani haqida emitentga o‘z vaqtida xabar berilmagan bo‘lsa;
- mijoz karta ma’lumotlarini (PIN, SHIR, SMS-kod va boshqalar) uchinchi shaxslarga oshkor qilgan bo‘lsa — bu holatlarda emitent javobgarlikdan ozod etiladi.

Bank kartasi saqlovchisi emitent bilan tuzilgan shartnomada belgilangan tartibda to‘lov tizimi qoidalari asosida operatsiyalarni amalga oshirish, karta orqali o‘tkazilgan barcha operatsiyalar bo‘yicha to‘liq ma’lumot olish hamda qo‘shimcha bank kartalarini rasmiylashtirishni so‘rash huquqiga ega. Shuningdek, u karta hisobvarag‘ini yopish to‘g‘risida qaror qabul qilib, karta xizmatlaridan voz kechish huquqiga ham ega.

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar esa bu huquqlarga qo‘shimcha ravishda xo‘jalik, xizmat safari va boshqa xarajatlar uchun mablag‘larni karta hisobvarag‘iga kiritish hamda ularni naqd pulsiz shaklda

sarflash, shuningdek, shartnomada belgilangan boshqa moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish vakolatiga ega bo'ladi.

Karta saqlovchisining majburiyatlariga esa quyidagilar kiradi:

- emitent bilan tuzilgan shartnomada ko'rsatilgan barcha qoida va talablarni bajarish;
- to'lov tizimi operatori tomonidan o'rnatilgan tartib va qoidalarga rioya etish;
- karta ma'lumotlarini sir saqlash hamda xavfsizlik choralari haqida emitent ko'rsatmalariga amal qilish.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi bank qonunchiligi va Markaziy bankning me'yoriy hujjatlarida yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlarning bank kartalaridan foydalanish tartibi qat'iy reglamentlangan. Mazkur tartiblar moliyaviy intizomni ta'minlash, hisob-kitoblarni shaffof yuritish hamda naqd pulsiz to'lovlar ulushini oshirishga xizmat qiladi

Xulosa va takliflar. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, 2020–2024-yillar mobaynida kartali to'lov tizimlarining rivojlanish sur'atlari ijobiy tendensiyani ko'rsatmoqda. Xususan, mamlakat bo'yicha muomaladagi to'lov kartalari soni 1,5 barobarga, bankomat va POS-terminallar soni esa qariyb 40 foizga oshgan. Shu bilan birga, banklararo integratsiya tizimlari — UzCard va HUMO o'rtasidagi texnologik uzviylik hamda Visa, MasterCard, UnionPay kabi xalqaro to'lov tizimlari bilan hamkorlik milliy to'lov infratuzilmasining raqobatbardoshligini oshirgan.

Asaka bank AJ misolida o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, bank tomonidan joriy etilgan raqamli mahsulotlar — mobil ilovalar, virtual kartalar,

onlayn to'lovlar, QR-kod asosidagi tranzaksiyalar va biometrik autentifikatsiya tizimlari kartali to'lovlar hajmining sezilarli o'sishiga sabab bo'lgan. Natijada 2024-yilda Asaka bank mijozlari soni 2020-yilga nisbatan 2,3 barobarga oshgan, bu esa bankning operatsion samaradorligi va mijozlar bazasining kengayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kartali to'lov tizimlarining samaradorligi bir nechta omillar majmuasiga bog'liq:

- texnologik infratuzilmaning yetukligi,
- raqamli xavfsizlik tizimlarining ishonchliligi,
- mijozlar ishonch darajasi,
- to'lov xizmatlari narxlari shuningdek, davlat tomonidan yaratilgan

normativ-huquqiy muhit. Mazkur yo'nalishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, Markaziy bankning yo'riqnomalari asosiy yo'naltiruvchi hujjatlar bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu hujjatlar milliy to'lov tizimining barqaror ishlashini, banklararo hisob-kitoblar tezligini va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan.

Xalqaro moliyaviy tashkilotlar (IMF, WB, ECB) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar ham kartali to'lov tizimlarining rivoji iqtisodiyotda moliyaviy inklyuziya va yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatishini isbotlagan. Masalan, Jahon banki (2023) ma'lumotlariga ko'ra, to'lov tizimlarining raqamlashtirilishi rivojlanayotgan mamlakatlarda bank xizmatlaridan foydalanuvchilar ulushini o'rtacha 1,7 barobarga oshirgan.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy xulosalar shakllantirildi:

1. Kartali to'lov tizimlarining samaradorligi iqtisodiyot barqarorligining

muhim tarkibiy elementi sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli to'lov vositalarining keng qo'llanilishi moliyaviy resurslarning aylanma tezligini oshirib, milliy valyutaning muomaladagi barqarorligini ta'minlaydi hamda naqd pul oqimini kamaytirish orqali "soya iqtisodiyoti" ulushini qisqartiradi.

2. To'lov tizimlari infratuzilmasining modernizatsiyasi iqtisodiy samaradorlikni oshirishda hal qiluvchi omil bo'lib, Asaka bank AJ misolida o'tkazilgan tahlillar raqamli texnologiyalar (mobil banking, QR-kod to'lovlar, NFC texnologiyalari) joriy etilishi natijasida operatsion xarajatlar o'rtacha 18–22 foizgacha kamayganini ko'rsatdi.

3. Milliy to'lov tizimlari (UzCard va HUMO) o'rtasidagi integratsiya banklararo hisob-kitoblar tizimini tezlashtirgan, tranzaksiya vaqtini qisqartirgan va texnik uzilishlarni kamaytirgan. Bunday integratsiya to'lov tizimlari raqobatbardoshligini oshirish hamda yagona milliy to'lov makonini shakllantirish imkonini bermoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2020, 12-may) "2020–2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" PF-5992-son Farmon.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2020, 5-oktabr) "Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6079-son Farmon.

3. Glahsheen, J. (2019) Popular Payment Methods for Millennial Customers. The Paypers – Payment Methods Report: Innovations in the Way We Pay, p. 57.
4. Lavrushina, O.I. (2016) Bankovskoe delo. Ekspress-kurs. Moskva: Uchebnoe posobie.
5. Maznyak, V.M. (2004) ‘Gomogennost i potrebitelskie kachestva bankovskikh produktov’, Materialy mezhregional’noi nauchno-prakticheskoi konferentsii RGEU (RINKh), Rostov-na-Donu, p. 13.
6. Mishkin, F.S. (2006) Ekonomicheskaya teoriya deneg, bankovskogo dela i finansovykh rynkov. 7-nashr. (ingliz tilidan tarj.). Moskva: I.D. Vil’yams, p. 42.
7. Timoshenko, L.A. (2004) Razrabotka novykh bankovskikh produktov i vozdeystvie na konkurentosposobnost i nadezhnost banka. Moskva: Ekon-Inform, p. 13.
8. Umarov, Z. (2019) ‘Yangi bank xizmatlari, ularni rivojlantirish’, Bozor, pul va kredit, 1-son.
9. Mamadiyarov, Z.T. (2019) Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish. Avtoreferat. Toshkent, 13 b.
10. Azlarova, A.A. (2020) ‘COVID-19 pandemiyasi sharoitida O‘zbekistonda bank sohasini transformatsiyalash jarayonini jadallashtirish’, Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 5-son, 22 b.
11. Blajevich, A.A. va Ryabchenko, A.A. (2018) ‘Neobank kak novoe napravlenie finansovykh innovatsiy v Rossiyskoy Federatsii’, Vestnik Instituta ekonomicheskikh issledovaniy, 4(12), 160–168.

12. Sharma, A. va Kansal, A. (2014) 'Technological innovations in banking sector: impact, behaviour and services', International Journal of Information & Computation Technology, 4(9), 886.

13. Tojiev, R.R. va Rahmatov, T.S. (2020, noyabr–dekabr) 'Zamonaviy sharoitda bank xizmatlar bozori nazariy jihatlar', Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 6-son.